



LAHZANI O'G'IRLAGAN SEHR: FOTOKAMERALARNING ABADIY HIKOYASI

¹ *Hasanjonova Muxlisaxon Hasanjon qizi*

² *Hasanboyev Shoxjaxon Akmal o'g'li*

¹ *O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Jurnalistika
fakulteti 1-bosqich talabasi*

E-mail: muxlisaxonhasanjonova7@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0003-9461-4459>

² *Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
talabasi*

E-mail: hasanboyevshoxjaxon23@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada fotokameralarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari, ularning insoniyat tafakkuri, ijtimoiy ong va madaniy xotira shakllanishidagi o'rni yoritiladi. Kamera obskurdan boshlangan fotografiya tarixi analog va raqamli texnologiyalar orqali zamonaviy vizual madaniyatga qadar bo'lgan jarayonlar misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, fotografiyaning jamiyatdagi ijtimoiy adolat, tarixiy hujjatlashtirish, jurnalistika va estetik tafakkur rivojiga ta'siri, axloqiy masalalari hamda O'zbekiston kontekstidagi bugungi ahamiyati ochib beriladi. Shu bilan birgalikda, fotosuratning inson xotirasi va vaqt bilan bog'liq falsafiy mohiyatiga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: fotokamera, fotografiya tarixi, vizual madaniyat, ijtimoiy ong, xotira, jurnalistika, texnologik taraqqiyot, O'zbekiston fotografiyasi.

Аннотация: В статье рассматривается история возникновения и развития фотокамер, их роль в формировании общественного сознания, культурной памяти и визуального мышления человечества. Анализируется эволюция фотографии от камеры-обскуры до цифровых и мобильных технологий, а также её влияние на журналистику, социальные изменения и эстетическое восприятие действительности. Особое внимание уделяется этическим аспектам фотографии, её документальной функции и современному значению фотографии в контексте Узбекистана. Фотография представляется как средство сохранения времени, памяти и человеческих эмоций.

Ключевые слова: фотокамера, история фотографии, визуальная культура, общественное сознание, память, фотожурналистика, технологический прогресс, фотография Узбекистана.

Abstract: This article explores the origin and historical development of cameras, highlighting their role in shaping human perception, social consciousness, and cultural memory. The evolution of photography—from the camera obscura to analog, digital, and mobile technologies is analyzed within the context of visual culture and media development. The study also examines photography's impact on journalism, social justice, historical documentation, and ethical considerations. Special attention is given to the contemporary significance of photography in Uzbekistan. Photography is presented as a powerful medium that preserves time,





memory, and human experience.

Keywords: camera, history of photography, visual culture, social consciousness, memory, photojournalism, technological development, photography in Uzbekistan.

Kirish

Bir soniyaning o'ndan bir qismida nima yashirin? Bir kadr, bir lahza - ishq-muhabbat, fojia yoki insoniyatning butun hikoyasi. Fotokamera bu nafaqat yorug'likni ushlaydigan quti, balki vaqtni muzlatib, dunyoni yangicha ko'rishga majbur qiladigan sehrli ko'zgudir. Tasavvur qiling: bir surat bilan dunyolar o'zgaradi, yuraklar larzaga keladi, xotiralar abadiy saqlanadi. Bu - kameraning kuchi hamda ushbu hikoya uning insoniyat bilan sayohatidan boshlanadi.

Materiallar va usullar

Fotokameralarning kelib chiqish tarixi bir daqiqada yuz bergan daholik chaqnashi bilan emas, aksincha, yorug'lik borasidagi qadimiy kuzatishlar asosiga quriladi. Kamera obskura - teshik vositasida teskari tasvirni yuzaga aks ettiradigan qorong'u xona yoki quti qobig'ida miloddan avvalgi IV asrda Xitoy va Yunonistonda paydo bo'lgan. Shunday ekan, bu optik hodisaning tez sur'atlarda fotografiyaga tamal toshi qo'yishi va asrlar davomida ko'chma qurilmalarga poydevor bo'lib xizmat qilayotgani raqamli olam portretini go'zal manzaralar bilan boyitdi. Jumladan, haqiqiy yutuq sifatida 1816-yilda fransuz ixtirochisi Jozef Nisefor Nieps tomonidan heliografiya deb atalgan jarayon yordamida birinchi doimiy surat yaratilganini ko'rishimiz mumkin. Avvalo, u tayyor ko'rinishni hosil qilishidan avval uyining derazasidan rasmni qalay bilan qoplangan plastinaga yozib olgan ekan. 1869-yilga kelib esa Lui Dager kumush bilan qoplangan mis plastinada batafsil, yagona tasvirlarni hosil qiluvchi dagerotipni takomillashtirdi, bu esa amaliy fotografiyaning dunyo yuzini ko'rishiga olib keldi. Boshqa tomondan, XIX asrda fan va texnika sohasidagi kashfiyotlar faol qadamlar bilan odimlay boshladi. Xususan, 1841-yilda Uilyam Genri Foks Talbotning kalotip harakati negativlarni taqdim etishi bir nechta nusxalarini chop etish imkonini beradi. Shuningdek, Jorj Istmanning ham 1888-yilda Kodak kamerasi bilan «Siz tugmani bosing, qolganini biz qilamiz» shiori ostida plyonkali rulonlarni ommalashtirganini alohida ta'kidlab o'tish joiz. XX asr boshlarida 35 mm plyonkali kameralar misol tariqasida, 1925-yilda ishlab chiqarilgan Leica, ko'cha fotografiyasini osonlashtirib, kundalik hayotni oqqa tushirish usulini butunlay o'zgartirgani bilan ham e'tiborga molik.

Boshqa tomondan, fotokameralar texnologik yutuqlar olib kelishidan tashqari, oyna va o'zgarish katalizatori sifatida jamiyat va etika qoidalariga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, memlar, Instagram hikoyalari yoki jamoatchilik fikrini shakllantiradigan virusli yangiliklarning fotosuratlarini ko'pincha so'zlarni ortda qoldirib, aloqada ustunlik qilishi bilan tasviriy madaniyatni rivojlantirdi. Bunday qadriyatning shakllanishi yo'qolib ketish arafasida turgan madaniy merosimizni saqlaydi, milliy an'ana va raqslar, og'zaki ijod mahsullarini hujjatlashtirishi bilan o'zining kitob sahifalarini yangi pog'onaga olib chiqayotganligi maqtovga arzigulikdir. Ilmiy-ommabop va kinematograf nuqtayi nazaridan yondashadigan





bo'lsak, kameralar ijtimoiy islohotlarni boshqarishi ko'plab kasbiy tadqiqotlar orqali isbotlangan. Masalan, Buyuk Depressiya davrida Dorotea Langening «Muhojir ona» surati qashshoqlikni insoniylashtirib, siyosat o'zgarishlariga turtki beradi, 1993-yilda Kevin Karterni Sudan xalqining ocharchilik tasvirini zarhal bo'yoqlarda aks ettirishi bo'lsa global yordamni safarbar qiladi. Qo'shimcha ravishda, bugungi jadal suratlar bilan odimlayotgan texnologiya asrida fuqarolar jurnalistikasi, kamera telefonlari vositasida Arab Bahoridan tortib, Black Lives Matter noroziliklarigacha bo'lgan adolatsizliklarni fosh qiladi, ovozsizlarga kuch berib, hokimiyatni javobgarlikka tortgan edi.

Natijalar va muhokama

Biroq, o'zbek adabiyoti va jurnalistikasining yirik vakillaridan biri, oddiy so'z orqali ulkan ma'no bera oladigan, xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov: «Nur borki, soya bor», - deganlaridek, bu kuchning ham muayyan kesimda pardasi bor. Birinchidan, «tasvirga asoslangan jamiyat» ning yuksalishi filtrlangan selfilardan kelib chiqadigan tana surati muammolari singari bosim va tazyiqlarni kuchaytiradi va hattoki ishonchni suiste'mol qiladigan deepfeyklar ham yaratishi mumkin. Fotografiya, ikkinchidan, rasm kimga tegishli? Tahrirlash qanchalik ko'p bo'lsa ortiqcha? kabi axloqiy savollarni keltirib chiqarishi turgan gap. Shunga qaramay, uning umumiy ta'siri ijobiy bo'lib, bo'lingan dunyoda hamdardlik va aloqani rivojlantiradi.

Bugun XIX asrning 2025-yilida jannatmakon diyorumiz - O'zbekiston fotografiyaning yangi cho'qqisida turibdi. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida yoshlar o'z ovozlarni dunyoga yetkazmoqda, misol uchun, Toshkent ko'chalarida olingan selfilar yoki Farg'ona vodiysining yam-yashil manzaralari global platformalarda trendga aylandi. Shu bilan birga, fotosessiya ijtimoiy adolat uchun ham xizmat qilmoqda: mamlakatimizda gender tengligi yoki ekologiya muammolari haqidagi suratlar maqsadli auditoriyani tafakkur qilishga undamoqda. Jumladan, yaqindan bir o'zbek fotografining Orol dengizi qurib qolgan qayiqnlarni tasvirlagan surati xalqaro e'tiborni tortdi, bu esa dolzarb Orol masalasini dunyo miqyosida muhokama qilishga turtki bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, fotokameralar insoniyatning ko'zidir. Ular o'tkinchi lahzalarni abadiylashtirib, muhabbat, g'am-g'ussa va umid hikoyalarini bir ramkaga sola oladi. Oddiy yorug'lik qutisidan boshlanib, hozirgi sun'iy intellekt bilan quvvatlangan mo'jizalarga aylangan bu asboblari O'zbekistonning ko'k gumbazlaridan tortib, poytaxtimizning gavjum ko'chalarigacha bo'lgan manzaralarni olamga tanitishmoqda. Zero, har bir surat bu nafaqat tasvir, balki xalqimizning madaniy merosi va kelajak orzularini aks ettiruvchi ko'prikdir. Fikrimni intiho qilar ekanman, Buyuk Depressiya davri suratlari bilan mashhur amerikalik fotograf Doroteya Langning so'zlarini keltirmoqchiman: «Kamera - bu ko'rishni o'rganish vositasi, u ko'zgu ko'rinmaydigan narsalarni ko'rishga yordam beradi».

Foydalanilgan adabiyotlar (ARA)

1. Barthes, R. (1981). Camera lucida: Reflections on photography. New York, NY: Hill and Wang.





2. Berger, J. (1972). *Ways of seeing*. London, UK: Penguin Books.
3. Inayatov, J. (2024). Turkiston o'lkasidan chiqqan dastlabki mahalliy fotograf-lar va ularning faoliyati. *O'zMU xabarlar* – Acta NUUz, 1(1.7.1).
4. Benjamin, W. (1968). The work of art in the age of mechanical reproduction. In *Illuminations* (pp. 217–251). New York, NY: Schocken Books.
5. Bourdieu, P. (1990). *Photography: A middle-brow art*. Stanford, CA: Stanford University Press.
6. Clarke, G. (1997). *The photograph*. Oxford, UK: Oxford University Press.
7. Tilavova, D. D. (2025). Xudoybergan Devonov - O'zbek fotografiya va kino san'atining asoschisi. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 5(5), 105–110.
8. Freund, G. (1980). *Photography and society*. Boston, MA: David R. Godine.
9. Lang, D. (2008). *Dorothea Lange: A life beyond limits*. New York, NY: W. W. Norton & Company.
10. Mitchell, W. J. T. (1994). *Picture theory: Essays on verbal and visual representation*. Chicago, IL: University of Chicago Press.
11. Sontag, S. (1977). *On photography*. New York, NY: Farrar, Straus and Giroux.
12. Sontag, S. (2003). *Regarding the pain of others*. New York, NY: Farrar, Straus and Giroux.
13. Wells, L. (Ed.). (2015). *Photography: A critical introduction* (5th ed.). London, UK: Routledge.
14. Zelizer, B. (2004). *Taking journalism seriously: News and the academy*. Thousand Oaks, CA: Sage Publications.
15. Newton, J. H. (2001). *The burden of visual truth: The role of photojournalism in mediating reality*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
16. Perlmutter, D. D. (1998). *Photojournalism and foreign policy: Icons of outrage in international crises*. Westport, CT: Praeger.
17. Sobitova, G. A. (2025). O'zbekiston kino, foto va fono hujjatlar milliy arxivi shakllanishida foto materiallarning o'rni (XX asr misolida). *Modern Education and Development*, 36(2).
18. Pink, S. (2013). *Doing visual ethnography* (3rd ed.). London, UK: Sage Publications.

